



## Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-sentabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

### II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 33 664,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,3 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,5 % ga yetdi.


#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish

(yanvar-sentabr oylarida)

|               | Ko'rsatkichlar                                    | Mlrd. so'm      |                 | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---------------|---|-----------------|-----------------|---|
|               |   | 2022- yil       | 2023- yil       |   |
|               | <b>I. YAHM</b>                                    | <b>28 910,1</b> | <b>33 664,6</b> | <b>105,3</b>  |
| shu jumladan: |   |                 |                 |   |
|               | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 28 022,7        | 32 945,7        | 105,1   |
|               | Mahsulotlarga sof soliqlar                        | 887,4           | 718,9           | 111,8   |
|               | <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>28 022,7</b> | <b>32 945,7</b> | <b>105,1</b>  |
|               | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi          | 10 780,2        | 12 651,8        | 104,9   |
|               | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)                | 6 358,5         | 7 316,5         | 106,5   |
|               | sanoat  | 4 267,6         | 4 985,5         | 107,0   |
|               | qurilish  | 2 090,9         | 2 331,0         | 105,5   |
|               | <b>Xizmatlar</b>                                  | <b>10 884,0</b> | <b>12 977,4</b> | <b>104,6</b>  |
|               | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 2 125,9         | 2 539,7         | 107,4   |
|               | tashish va saqlash, axborot va aloqa              | 1 464,7         | 1 826,2         | 112,1   |
|               | boshqa xizmat tarmoqlari                          | 7 293,4         | 8 611,5         | 102,2   |


**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi  
(% da)**

2022- yil yanvar-sentabr



**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)**


2023- yil yanvar-sentabr



Yalpi hududiy mahsulotda 2023- yil yanvar-sentabr oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 363 965,3 mlrd. so‘nni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 23 889,5 mlrd. so‘nni tashkil etdi. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida 306 301,2 mlrd. so‘nni, Namangan viloyatida esa 20 254,3 mlrd. so‘nni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2023- yil yanvar-sentabr oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 51,2 % (2022- yil yanvar-sentabr 51,9 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 72,5 % (2022- yil yanvar-sentabr 72,3 %) ni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi**  
(jamiga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,5 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oyida – 72,3 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

**Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi**  
(ming so‘m)

| Ko‘rsatkichlar        | 2022- yil<br>yanvar-sentabr | 2023- yil<br>yanvar-sentabr |
|-----------------------|-----------------------------|-----------------------------|
| <b>Yanvar-sentabr</b> | <b>9 782,8</b>              | <b>11 135,1</b>             |

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHMni ishlab chiqarish**  
(2023- yil yanvar-sentabr)

| Ko‘rsatkichlar | mlrd. so‘m                  |                      | Respublikada<br>tutgan ulushi,<br>% da |
|----------------|-----------------------------|----------------------|--|
|                | O‘zbekiston<br>Respublikasi | Namangan<br>viloyati |  |

|  |                  |                 |            |
|--|------------------|-----------------|------------|
| <b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b> | <b>750 925,7</b> | <b>33 664,6</b> | <b>4,5</b> |
|--|------------------|-----------------|------------|

*shu jumladan:*

|   |           |          |     |
|---|-----------|----------|-----|
| Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan<br>qiymati | 710 289,8 | 32 945,7 | 4,6 |
|---|-----------|----------|-----|

|                            |          |       |     |
|----------------------------|----------|-------|-----|
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 40 635,9 | 718,9 | 1,8 |
|----------------------------|----------|-------|-----|

|   |                  |                 |            |
|---|------------------|-----------------|------------|
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo‘shilgan qiymati</b> | <b>710 289,8</b> | <b>32 945,7</b> | <b>4,6</b> |
|---|------------------|-----------------|------------|

|   |                  |                 |            |
|---|------------------|-----------------|------------|
| <b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik<br/>xo‘jaligi</b> | <b>168 231,8</b> | <b>12 651,8</b> | <b>7,5</b> |
|---|------------------|-----------------|------------|

|  |                  |                |            |
|--|------------------|----------------|------------|
| <b>Sanoat (qurilish sohasini<br/>qo‘shgan holda)</b> | <b>228 013,6</b> | <b>7 316,5</b> | <b>3,2</b> |
|--|------------------|----------------|------------|

|        |           |         |     |
|--------|-----------|---------|-----|
| Sanoat | 182 123,1 | 4 985,5 | 2,7 |
|--------|-----------|---------|-----|

|          |          |         |     |
|----------|----------|---------|-----|
| qurilish | 45 890,5 | 2 331,0 | 5,1 |
|----------|----------|---------|-----|

|                  |                  |                 |            |
|------------------|------------------|-----------------|------------|
| <b>Xizmatlar</b> | <b>314 044,4</b> | <b>12 977,4</b> | <b>4,1</b> |
|------------------|------------------|-----------------|------------|

|   |          |         |     |
|---|----------|---------|-----|
| savdo, yashash va ovqatlanish<br>bo‘yicha xizmatlar | 51 949,8 | 2 539,7 | 4,9 |
|---|----------|---------|-----|

|  |          |         |     |
|--|----------|---------|-----|
| tashish va saqlash, axborot va aloqa<br>xizmatlari | 54 459,7 | 1 826,2 | 3,4 |
|--|----------|---------|-----|

|                  |           |         |     |
|------------------|-----------|---------|-----|
| boshqa xizmatlar | 207 634,9 | 8 611,5 | 4,1 |
|------------------|-----------|---------|-----|

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 38,4 %), sanoatda – 107,0 % (15,1 %), qurilishda – 105,5 % (7,1 %), xizmatlar sohasida – 104,6 % ni (39,4 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,4 % (7,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog'ida 112,1 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % dan (26,2 %) iborat bo'ldi.

**2022-2023- yil yanvar-sentabrdada YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan % da)**

■ 2022- yil ■ 2023- yil

